# YANGI O‘ZBEKISTONNING BARQARORLIGINI TA’MINLASHDA “YANGI O‘ZBEKISTON – MAKTAB OSTONASIDAN BOSHLANADI” G‘OYASINING IJTIMOIY-G‘OYAVIY TAHLILI

**Ergashev Ibodulla**
O‘zbekiston Milliy universiteti
professori, siyosiy fanlar doktori
**Nabiyev Mansur Jamxur o‘g‘li**
O‘zbekiston Milliy univeristeti mustaqil izlanuvchisi
Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o‘qituvchi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘ zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning davlat tadbirlarida so‘zlagan ma’ruzlarida hususan 2023-yil “O‘zbekiston” nashryoti tomonidan nashr etilgan “Yangi O‘zbekistonda erkin va faravon yashaylik” deb nomlangan 5-jild kitobida “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” degan g‘oyani ilgari surgan. Ushbu g‘oya orqali O‘zbekistonda ta’lim tizimidagi islohotlarni yanada jonlantirish, ta’lim-tarbiya jarayonlarini sifatini yangi bir bosqichga olib chiqish jarayonidagi o‘rni ijtimoiy-g‘oyaviy asoslari tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, barqarorlik, maktab, ostona, g‘oya, ijtimoiy tahlil, islohotlar, ta’lim tizimi, qadriyat, deviant xulq, fuqarolik pozitsiyasi, natijador ta’lim, kelajakka sarmoya.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” degan g‘oya oddiy siyosiy shior sifatida emas, balki jamiyatni yangilashga qaratilgan chuqur mazmunga ega konsepsiya sifatida qaraladi. Bu fikr zamirida juda muhim haqiqat yotadi, har qanday barqaror taraqqiyotning ildizi aynan ta’lim tizimida shakllanadi. Ya’ni, maktab – bu nafaqat bilim beriladigan maskan, balki kelajak jamiyatining taraqqiyot modeli, uning qadriyatlari va dunyoqarashi shakllanadigan ijtimoiy makondir.

“Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo‘lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko‘plab ijtimoiy muammolarni yechish imkoni tug‘iladi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o‘ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo‘llab-quvvatlaydi”[1]. Oddatda jamiyatdagi o‘zgarishlar ko‘pincha iqtisodiy yoki siyosiy islohotlardan boshlanadi, degan qarash keng tarqalgan. Ammo ushbu konsepsiya buning aksini ilgari suradi, haqiqiy va barqaror o‘zgarish avvalo inson ongidan, uning tafakkuridan boshlanishi kerak. Bu esa, o‘z navbatida, maktab ta’limining sifati, mazmuni va metodologiyasiga bevosita bog‘liq.

Maktab ostonasi – bu bolalarning ilk ijtimoiylashuv bosqichi. Aynan shu yerda ular nafaqat o‘qish va yozishni, balki jamiyatda yashash qoidalarini, axloqiy me’yorlarni, vatanparvarlik tuyg‘usini va ijtimoiy mas’uliyatni o‘zlashtiradi. Shu boisdan ham, agar maktab zamonaviy, ochiq fikrli va innovatsion muhitga ega bo‘lsa, unda voyaga yetayotgan avlod ham shunday sifatlarni o‘zida mujassam etadi. Natijada jamiyatning umumiy intellektual va ma’naviy darajasi oshadi.

Ijtimoiy g‘oyaviy nuqtai nazaridan qaralganda, maktab jamiyatning eng muhim tayanch tuzilmalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Maktab shaxsni shakllantiruvchi, uni jamiyat qoidalari va qadriyatlariga moslashtiruvchi asosiy institut sifatida talqin etiladi. Boshqacha aytganda, maktab – bu shunchaki bilim beriladigan joy emas, balki insonni ijtimoiy hayotga tayyorlaydigan, uning dunyoqarashi, xulq-atvori va fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradigan muhitdir. Shu jihatdan, davlat siyosatining e’tibori aynan maktabga qaratilishi bejiz emas. Bu yondashuv oiladan keyingi eng muhim ijtimoiy bo‘g‘in sifatida ta’lim tizimini strategik darajaga olib chiqadi.

“Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi”, degan g‘oya asosida umummilliy ta’lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishga misli ko‘rilmagan e’tibor qaratilmoqda. Ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyot, sport sohalarini rivojlantirish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar

samaradorligini oshirish, yoshlarning aynisa, qizlarimizning iste’dod va qobilyatini ro‘yobga chiqarish borasida ham ko‘p ishlar qilinmoqda”[2].

Inson hayotining dastlabki bosqichida oila asosiy tarbiya maskani bo‘lsa, maktab bu jarayonni tizimli va maqsadli ravishda davom ettiradi. Aynan shu yerda bola kengroq ijtimoiy muhit bilan tanishadi, turli fikrlar va qarashlar bilan to‘qnashadi, o‘z o‘rnini anglay boshlaydi. Bu jarayonni sotsiologiyada “ijtimoiylashuv” deb atashadi. Maktab esa ana shu ijtimoiylashuvning eng muhim platformasi bo‘lib xizmat qiladi. Natijada, jamiyat qanday maktab tizimini yaratsa, kelajakda aynan shunday jamiyatga ega bo‘ladi.

“Maktab bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o‘zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak”[3].

Mazkur yondashuvning yana bir muhim jihati – intellektual kapital masalasidir. Zamonaviy dunyoda davlatlarning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan tabiiy resurslarga emas, balki inson kapitaliga bog‘liq. Ya’ni, bilimli, kreativ va tanqidiy fikrlay oladigan insonlar har qanday jamiyatning eng katta boyligidir. Shu bois, maktab ta’limiga kiritilgan har bir investitsiya aslida uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka qo‘yilgan sarmoya hisoblanadi. Bu sarmoya darhol natija bermasligi mumkin, ammo vaqt o‘tishi bilan u jamiyatning intellektual salohiyatini keskin oshiradi. Intellektual kapitalni shakllantirish jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmaydi. Bu yerda muhim masala – o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoni tahlil qilish va innovatsion yondashuvlarni rivojlantirishdir. Chunki zamonaviy iqtisodiyot aynan shunday ko‘nikmalarga ega kadrlarga tayanadi. Demak, maktabning vazifasi faqat “bilim berish” emas, balki “fikrlay oladigan inson”ni tarbiyalashdan iborat.

Shuningdek, sifatli maktab ta’limi jamiyatda ijtimoiy adolatni ta’minlashning muhim vositalaridan biri sifatida ham qaraladi. Bu jarayon ko‘pincha “ijtimoiy lift” tushunchasi bilan izohlanadi. Ya’ni, har bir inson, uning kelib chiqishi, oilaviy sharoiti yoki moddiy ahvolidan qat’i nazar, sifatli ta’lim orqali o‘z hayotini o‘zgartirish imkoniga ega bo‘ladi. Maktab bu yerda teng imkoniyatlar yaratadigan maydon vazifasini bajaradi.

Agar ta’lim tizimi adolatli va sifatli bo‘lsa, u holda jamiyatda vertikal mobillik kuchayadi. Bu esa ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi keskin tafovutlarni kamaytiradi, ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Aksincha, agar ta’lim tizimi zaif bo‘lsa, ijtimoiy tengsizlik chuqurlashadi va jamiyatda ziddiyatlar kuchayishi mumkin. “Men yangi O‘zbekistonni – obod va farovon, demokratik mamlakatni barpo etishda siz, muhtaram pedagoglarni, professor-o‘qituvchilarni o‘zim uchun eng katta kuch, tayanch va suyanch, deb bilaman. Sizlarning hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatingizni qo‘llab-quvvatlash, sizlar uchun munosib mehnat va turmush sharoiti yaratib berishni Prezident sifatida o‘zimning muqaddas burchim, deb hisoblayman”[4].

Qadriyatlar transformatsiyasi nuqtai nazaridan qaralganda, “Yangi O‘zbekiston” tushunchasi oddiy modernizatsiya g‘oyasidan ancha kengroq ma’noni anglatadi. U jamiyatning tashqi ko‘rinishini emas, balki uning ichki mohiyatini – inson tafakkuri, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimini yangilashni nazarda tutadi. Ya’ni, bu yondashuvda asosiy e’tibor infratuzilma yoki iqtisodiy ko‘rsatkichlarga emas, balki inson omiliga, uning ongida yuz beradigan o‘zgarishlarga qaratiladi. Chunki har qanday barqaror taraqqiyot, avvalo, yangicha fikrlaydigan va mas’uliyatni his qiladigan fuqarolarga tayanadi.

“Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” degan konsepsiyaning markazida qadriyatlar sintezi turadi. Bu esa milliy an’analar bilan umuminsoniy tamoyillarni uyg‘unlashtirishni anglatadi. Maktab esa aynan shu jarayonning boshlang‘ich nuqtasidir. Chunki bola ilk bor shu muhitda nafaqat matematik formulalar yoki grammatik qoidalarni o‘rganadi, balki jamiyatda qanday yashash kerakligini, qanday qadriyatlarga tayanish zarurligini anglay boshlaydi. Shu bois, maktab ta’limi faqat akademik bilim berish bilan cheklanmasligi, balki tarbiyaviy funksiyani ham to‘liq bajarishi zarur. Bugungi kunda yosh avlodga vatanparvarlik tuyg‘usini singdirish, ularni o‘z yurtiga sadoqatli bo‘lishga undash muhim vazifalardan biridir. Ammo bu jarayon shunchaki shiorlar yoki rasmiy tadbirlar bilan cheklanib qolmasligi kerak. Aksincha, u o‘quv jarayonining ichki mazmuniga singib ketgan bo‘lishi lozim. Masalan, tarixni o‘rganish orqali milliy o‘zlikni anglash, adabiyot orqali ma’naviy boyliklarni his etish, huquqiy fanlar orqali esa

qonun ustuvorligini tushunish shakllantiriladi. Shu bilan birga, bag‘rikenglik, inson huquqlariga hurmat va ochiq fikrlash kabi umuminsoniy qadriyatlar ham parallel ravishda rivojlantiriladi.

Qadriyatlar transformatsiyasining yana bir muhim jihati – jamiyat a’zolarining faolligini oshirishdir. An’anaviy yondashuvda inson ko‘pincha tizimning passiv ishtirokchisi sifatida qaralgan bo‘lsa, yangi konsepsiyada u faol subyektga aylanadi. Ya’ni, fuqarodan nafaqat mavjud tartib-qoidalarga rioya qilish, balki ularni takomillashtirishda ham ishtirok etish talab etiladi. Bu esa tanqidiy fikrlash, tashabbuskorlik va mas’uliyat kabi sifatlarni shakllantirishni taqozo etadi.

Maktab aynan shunday sifatlarni rivojlantirish uchun eng muhim maydondir. Agar o‘quvchi dars jarayonida mustaqil fikr bildirishga, savol berishga va muhokamada ishtirok etishga o‘rgansa, u kelajakda ham ijtimoiy hayotda faol bo‘ladi. Aksincha, agar ta’lim tizimi faqat tayyor bilimlarni yodlashga asoslangan bo‘lsa, unda passivlik kuchayadi va innovatsion rivojlanish sekinlashadi.

“Bugun har bir o‘qituvchi va tarbiyachi, oliygoh domlasi ta’lim va ilm-fan sohasidagi eng so‘nggi ijobiy yangiliklarni o‘quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur bilim va dunyoqarash egasi, bir so‘z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg‘or vakillari bo‘lishlari kerak”[5].

Ijtimoiy g‘oyaviy yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” degan g‘oya nafaqat ta’limni rivojlantirishga, balki jamiyatda mavjud bo‘lgan bir qator tizimli muammolarni hal etishga qaratilgan kompleks konsepsiya sifatida namoyon bo‘ladi. Bu yerda maktab oddiy ta’lim maskani emas, balki ijtimoiy muammolarni yumshatuvchi va ularning ildiziga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim institut sifatida talqin etiladi. Chunki ko‘plab ijtimoiy ziddiyatlar va nomutanosibliklar aynan ta’lim tizimidagi farqlardan boshlanishi mumkin.

Birinchi muhim yo‘nalish – ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish masalasidir. Zamonaviy jamiyatda imkoniyatlar tengligi eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, yirik shaharlardagi maktablar bilan chekka hududlardagi ta’lim muassasalari o‘rtasida sezilarli tafovutlar mavjud bo‘lsa, bu farq keyinchalik ijtimoiy tabaqalanishni yanada kuchaytiradi. Shu sababli, maktablar o‘rtasidagi sifat, infratuzilma va o‘qitish darajasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish strategik ahamiyat kasb etadi. Agar qishloqdagi bola ham poytaxtdagi tengdoshidek sifatli ta’lim olsa, u holda ularning kelajakdagi imkoniyatlari ham tenglashadi.

Bu jarayon moddiy bazani yaxshilash bilan cheklanmaydi. Albatta, zamonaviy sinfxonalar, texnologiyalar va malakali o‘qituvchilar muhim omillardir. Ammo undan ham muhim jihat – ta’lim mazmunining bir xil sifat darajasida bo‘lishidir. Ya’ni, har bir o‘quvchi qayerda yashashidan qat’i nazar, bir xil bilim va ko‘nikmalarni egallash imkoniga ega bo‘lishi kerak. Ana shundagina jamiyatda haqiqiy “imkoniyatlar tengligi” shakllanadi va ijtimoiy adolat mustahkamlanadi.

Ikkinchi muhim yo‘nalish – deviant xulq-atvorning oldini olishdir. Sotsiologiyada deviantlik jamiyat qoidalariga zid bo‘lgan xatti-harakatlar majmui sifatida talqin etiladi. Bu holat ko‘pincha yoshlar orasida uchraydi va uning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin, misol uchun nazoratsiz bo‘sh vaqt, ijtimoiy befarqlik, ma’naviy bo‘shliq yoki noto‘g‘ri muhit ta’siri. Shu nuqtai nazardan, maktab yoshlarning hayotida muhim “himoya mexanizmi” vazifasini bajaradi. Agar o‘quvchilarning bo‘sh vaqti mazmunli tashkil etilsa, ular sport, san’at, ilmiy to‘garaklar va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullansa, u holda ularning salbiy yo‘llarga kirib ketish ehtimoli sezilarli darajada kamayadi. Bu jarayon yoshlarni nafaqat band qiladi, balki ularning qiziqishlarini rivojlantiradi, o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi va ijtimoiy foydali faoliyatga yo‘naltiradi. Natijada, jinoyatchilik darajasi pasayadi, yot va zararli g‘oyalar ta’siri esa cheklanadi.

“Mahalladagi muhit, aholi bandligi ko‘p jihatdan yoshlar ta’lim-tarbiyasiga bog‘liq. Shunday ekan, mahalla raisi ota-onalar bilan birga maktablar hayotida faol qatnashishi, yoshlarning bilimi va kasb egallashiga e’tiborli bo‘lishi kerak”[6].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur g‘oyaning ijtimoiy-g‘oyaviy tahlili uning oddiy siyosiy bayonot emas, balki jamiyatni tubdan yangilashga qaratilgan aniq va izchil model ekanini ko‘rsatadi. Bu yondashuvning o‘ziga xos jihati shundaki, u o‘zgarishlarni “yuqoridan pastga” emas, balki “pastdan yuqoriga” tamoyili asosida tashkil etishni taklif qiladi. Ya’ni, jamiyatni rivojlantirishning boshlang‘ich nuqtasi sifatida eng asosiy ijtimoiy institutlardan biri – maktab tan

olinadi. Bu esa o‘z navbatida, uzoq muddatli va barqaror taraqqiyot uchun mustahkam poydevor yaratishga xizmat qiladi.

“Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” g‘oyasini yanada aniqroq tasavvur qilish uchun uni ramziy tarzda qurilishga qiyoslash mumkin. Agar har qanday bino mustahkam poydevor ustiga qurilsa, u uzoq yillar davomida barqaror turadi. Aksincha, poydevori zaif bo‘lgan inshoot tashqi ta’sirlarga bardosh bera olmaydi. Xuddi shunday, davlatning “poydevori” hisoblangan ta’lim tizimi, ayniqsa maktab bosqichi mustahkam bo‘lsa, uning ustiga qurilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tizimlar ham barqaror va samarali ishlaydi. Demak, maktabni rivojlantirish – bu aslida butun jamiyatni rivojlantirish demakdir.

“Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” g‘oyasinining yana bir muhim jihati – uning tizimli xarakterga ega ekanidir. Bu yerda ta’lim faqat alohida soha sifatida emas, balki boshqa barcha sohalar bilan chambarchas bog‘liq holda qaraladi. Ya’ni, sifatli ta’lim iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi, ijtimoiy tenglikni mustahkamlaydi, siyosiy barqarorlikni ta’minlaydi va madaniy rivojlanishga turtki beradi. Shu bois, maktabni rivojlantirish – bu faqat pedagogik emas, balki umumdavlat ahamiyatiga ega strategik vazifadir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 30.09.2020. // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. — URL: https://president.uz/oz/lists/view/3864 (murojaat sanasi: 30.04.2026).

2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va faravon yashaylik. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2023. – B.143.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish...videoselektor yig‘ilishidagi nutq, 23.08.2019. // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. — URL: https://president.uz/oz/lists/view/2820 (murojaat sanasi: 30.04.2026).

4. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 30.09.2020. // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. — URL: https://president.uz/oz/lists/view/3864 (murojaat sanasi: 30.04.2026).

5. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 30.09.2020. // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. — URL: https://president.uz/oz/lists/view/3864 (murojaat sanasi: 30.04.2026).

6. Mirziyoyev Sh.M. Maktab ta’limi sifatini yaxshilash bo‘yicha taqdimot bilan tanishish yig‘ilishidagi nutqi, 26 yanvar 2024 yil. — Toshkent. https://president.uz/oz/lists/view/7000.